

XIToyNING GLOBAL IQTISODIY EKSPANSIYASI: 2024–2026- YILLARDAGI GEOSIYOSIY RISKLAR VA STRATEGIYALAR TAHLILI

Islomqulova Malika

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi

1-kurs talabasi

rubbbymi@gmail.com

Tel: 91.803-97-87

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xitoy iqtisodiy qudratining global geosiyosatga ta’siri va uning 2024-yildagi rekord darajadagi savdo balansi tahlil qilinadi. Tadqiqotda g’arb bilan yuzaga kelayotgan "savdo urushlari", moliya tizimidagi dollar gegemonligi hamda ichki demografik inqiroz kabi strategik risklar ko‘rib chiqilgan. Maqola Xitoyning agressiv siyosati uning 40 yillik yutuqlarini xavf ostiga qo‘yishi mumkinligini asoslab, Xitoy uchun bu muammolarga qanday yechim topish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *Xitoy faktori, global bozor, savdo balansi, AQSh-Xitoy boshqaruvi, texnologik poyga, elektromobillar sanoati, dollarning global moliya tizimidagi dominantligi, CIPS, demografik inqiroz, strategik xatar, himoya devori, ichki yemirilish, qizil chiziq, dunyo bozori.*

ABSTRACT

This article analyzes the impact of China’s economic power on global geopolitics and its record trade balance in 2024. The study examines strategic risks such as the emerging "trade wars" with the West, the hegemony of the dollar in the financial system, and the internal demographic crisis. The article argues that China’s aggressive policies may jeopardize its 40-year achievements and provides recommendations for China on how to find solutions to these problems.

Keywords: *China factor, global market, trade balance, US-China governance, technological race, electric vehicle industry, dollar dominance in the global financial system, CIPS, demographic crisis, strategic risk, protective wall, internal decay, red line, world market.*

KIRISH

Bugungi kunga kelib siyosat maydonida Xitoy iqtisodiyotini chetlab o‘tib biror-bir jiddiy masalani muhokama qilishning imkoni yo‘q. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, Pekin o‘zining tashkilot savdo balansida rekord - qariyb 1 trillion dollarga teng

natijasini qayd etdi. Bu shunchaki raqam emas, bu butun dunyo iqtisodiyoti uchun "Xitoy shoki"ning to'liqini ta'siridan dalolatdir. Agar birinchi to'liqida Xitoy dunyoni arzon va sifatsiz mollar bilan to'ldirgan bo'lsa, hozirgi kunda u yuqori texnologiyali elektromobillar, quyosh panellari va sun'iy intellekt chiplari bozori poygasida birinchilikka da'vo qilmoqda. Ammo savol tug'iladi: Pekin o'zining bu iqtisodiy qudratini geosiyosiyda "imkoniyatlariga ortiqcha baho" berib yubormayaptimi, ya'ni iqtisodiy maydonda kuchaygani uchun iqtisodiy qudratiga haddan tashqari ishongan holda unga siyosiy ustunlik vositasi sifatida tayanib xato qilmayaptimi?

Vashingtonning javobi tezkor va qat'iy bo'ldi. 2025-yilga kelib, Xitoyning elektromobillari g'arb bozoriga shu qadar agressivlik bilan kirib, AQShni 100 foizlik boj joriy etishga majbur qildi. Ushbu holat xalqaro ekspertlar tomonidan "proteksionistik kurash" sifatida tavsiflanmoqda. Ma'lumki Xitoy o'zining ishlab chiqarish quvvatini haddan oshirib yuborgan edi va endi shu sababdan u ishlab chiqarilgan mahsulotini qayergadir sotishi kerak. Agar G'arb bozorlari yopilsa, bu Xitoy ichida millionlab ish o'rinlari va ijtimoiy tizimlarga zarba beradi. Shu nuqtada, Pekinning global strategik maqsadlari mamlakatning ichki tizimli muammolari bilan qarama-qarshilikka kirishmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Moliya olamida esa manzara yanada murakkabroq shaklga kelib qolgan bo'lib, ko'pchilik tomonidan "Xitoy dollardan voz kechmoqda" degan asossiz farazlar aytilayotgan bo'lsa-da, real vaziyat aslida mutloqo boshqacha, ya'ni Xitoyning moliyaviy zanjirlari hali ham dollar gegemonligiga mahkam bog'langan. Uning 3 trillion dollardan ortiq valyuta birjasida AQShning majburiyatlari yuqori. Bu o'ziga xos "moliya asirligi"dir. Agar Xitoy o'z iqtisodiyotiga zarar yetkazmoqchi bo'lsa, u eng birinchi bo'lib o'zi egalik qilib turgan dollarni sota boshlaydi va bu esa jahon bozorida ushbu valyutaning keskin qadrsizlanib ketishiga olib keladi. Garchi CIPS tizimi orqali muqobil kirishga harakat qilinayotgan bo'lsa-da, dunyo moliya tizimi SWIFTdan to'liq voz kechishga tayyor emas. Buning holatda Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi ma'lum bir "qizil chiziqqacha" borishi mumkin, xolos.

Texnologik frontda esa "chiplar urushi" yangi bosqichga chiqdi. AQShning eng zamonaviy yarim o'tkazgichlarni Xitoyga sotishni to'g'rilashi, Pekinni o'z texnologik mustaqilligini ta'minlashga undadi. Huawei kabi kompaniyalar mo'jiza ko'rsatishga urinmoqda, biroq texnologik uzilish hali ham 5-7 yilni tashkil etadi. Sun Szi aytganidek: "G'alaba qozonish uchun raqibdan kuchli bo'lish yetarli emas, vaqt va sharoitni ham bo'ysundirish kerak"¹. Bu poygada vaqt Xitoyning foydasiga

¹ Sun Szining "Urush san'ati" kitobi, VI bob, "Vaqt va sharoitga moslashish" bo'limi.

ishlamayapti. 2026-yilga kelib, mamlakat ichida demografik inqiroz - aholining keksayishi va ishchi kuchining keskin kamayishi kabi holatlar – iqtisodiyotga "ichidan yemirilish"ni boshlanishga olib keldi. Sababi Piter Zayxan aytganidek: "Demografiya - bu iqtisodiyotning taqdiridir. Ishchi kuchi va iste'molchilarini yo'qotayotgan davlat har qanday texnologik poygada vaqtga yutqazishi muqarrar"² Agar voqealar rivoji huddi shu tariqa davom etishdan to'xtamasa Xitoy endi "dunyo zavodi" maqomini saqlab qolish imkoni pasaymoqda, chunki unda ishlashni xohlovchi yoshlar soni kamayib ketdi.

Tahlillarga ko'ra Xitoy hozirda juda nozik nuqtada turibdi. Agar u Tayvan yoki Janubiy Xitoy dengizi kabi masalalarda kuch ko'rsatishda davom etsa, bu g'arb davlatlarining iqtisodiy to'liq bir imkoniyatlariga olib keladi. Bu esa Xitoyning 40 yillik muvaffaqiyatini bir necha yil ichida "yo'qqa chiqarishi" mumkin. Buning uchun, Pekin uchun hozirgi eng aqlli yo'l - "provokatsiyalarga tushmaslik" va agressiv siyosatdan ko'ra, iqtisodiy pragmatizmga qaytishdir. Ushbu pragmatizm nafaqat tashqi siyosatda, balki texnologik va moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishda ham yagona chora hisoblanadi. Zero, zamonaviy to'qnashuvlar endi faqat hududiy frontlarda emas, balki mikrochiplar zanjiri va bank tranzaksiyalari maydonida yutiladi. G'arb bilan ochiq qarama-qarshilik Xitoyni nafaqat strategik muhim bozorlardan, balki uning iqtisodiy "yuragi" bo'lgan texnologik importdan ham butkul mahrum qiladi. Binobarin, Pekin uchun hududiy ambitsiyalardan ko'ra global savdo tizimidagi o'rnini asrab qolish — milliy omon qolish strategiyasidir. Xuddi xitoyliklarning o'z ajdodlari bo'lmish Sun Szi aytganidek: "Eng buyuk mahorat — dushmanning rejalarini jangsiz barbod qilishdir"³ Bugungi kunda ushbu pragmatik yondashuvga qaytish — Xitoyni ijtimoiy inqiroz va iqtisodiy turg'unlik qurboniga aylanishdan asraydigan yagona to'g'ri yo'ldir. Aks holda, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holat Xitoyning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solib, davlat ichki ijtimoiy inqiroz va iqtisodiy turg'unlik qurboniga aylanishi muqarrar bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xitoy o'zining 40 yillik muvaffaqiyati va geosiyosiy ambitsiyalari o'rtasidagi "qizil chiziq"da turibdi. Bir tomondan rekord darajadagi eksport va texnologik poyga uni yuqoriga undasa, ikkinchi tomondan dollar gegemonligi, G'arbnig "himoya devorlari" va ichki demografik inqiroz uning rivojlanishiga tushov bo'lmoqda. Pekin uchun bugungi eng katta xavf — tashqi dushman emas, balki **vaqtdir**. Agar Xitoy "dunyo zavodi" maqomini yo'qotayotgan

² Piter Zayxan "The End of the World Is Just the Beginning: Mapping the Collapse of Globalization" kitobi III bob

³ Sun Szing "Urush san'ati kitobi", III bob, "Strategik hujum" bo'limi.

bir paytda agressiv tashqi siyosatni tanlasa, u o'z iqtisodiyotini "ichidan yemirayotgan" muammolar qurshovida qolib ketadi. Xitoy uchun hozirgi yagona najot yo'li — harbiy kuch ko'rsatish emas, balki iqtisodiy pragmatizmga qaytish va global tizim ichida omon qolishdir. Aks holda, o'n yillik zahmatli mehnat natijalari va erishilgan barcha yutuqlar bir necha yil ichida boy berilishi muqarrar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brands, H. (2024). *Xitoy o'z ta'sirini oshirib yuboradimi?* Tashqi ishlar.
2. Jahon banki. (2025). *Xitoy iqtisodiy yangiliklari: Demografik muammolar.*
3. Piter Zayxan "The End of the World Is Just the Beginning"(2022)
4. SMTI(Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti).(2025). Markaziy Osiyo va Xitoy: Risklar tahlili
5. Sun Szi. "Urush san'ati" (2018). Toshkent: "Yangi asr avlodi"
6. Tashqi siyosat (Foreign policy). (2026). *Yangi Sovuq Urushdagi Silikon Qalqon.*
7. The Economist. (2025). *Xitoyning trillion dollarlik savdo profitsiti.*
8. Xalqaro valyuta jamg'armasi. (2025). *Jahon iqtisodiy istiqbollari.*